

TAKOMILLASHMAGAN ZAMBURUG'LARNING UMUMIY TAVSIFI, ASOSIY VAKILLARI

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НЕВИДИМЫХ ГРИБОВ, ОСНОВНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ

GENERAL DESCRIPTION OF UNPERFORMED FUNGI, MAIN REPRESENTATIVES

Oqyo'lova Gulnoza Miraxmad qizi

Biologiya yo'nalishi 1-bosqich

Email: sardorbekoqyolov779@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15076345>

Annotatsiya: Ushbu maqolada takomillashmagan zamburug'larning kelib chiqishi, botanika fanidagi ahamiyati, hamda ularning asosiy vakillari, o'ziga xos hisusiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zamburug', mitselliy, deyteromitset, mikrosiklik, kondiogren, nojinsiy meva tanachalari, arxiaskomitsetlar sinfi, Saxaromitsetales tartibi, kleystotetsiyli, peritetsiyli, apotetsiyli askomitsetlar, lokuloaskomitsetlar va boshqa askomitset zamburug'lar.

Аннотация: В статье представлена информация о происхождении примитивных грибов, их значении в ботанике, а также об их основных представителях и уникальных характеристиках.

Ключевые слова: Грибы, мицелий, дейтеромицет, микроциклические, кондионон, бесполое плодовое тело, класс археомицетов, порядок сахаромицетов, клейстотеций, перитеций, апотеций аскомицетов, локулоаскомицетов и другие аскомицетовые грибы.

Abstract: This article provides information about the origin of primitive fungi, their importance in botany, as well as their main representatives and unique characteristics.

Key words: Fungi, mycelium, deuteromycete, microcyclic, conidiocon, asexual fruiting bodies, class Archaeomycetes, order Saccharomycetales, cleistothecium, perithecium, apothecium ascomycetes, loculoascomycetes and other ascomycetes fungi.

Kirish. Tabiatda zamburug'larning jinsiy ko'payishi yo'qolishining sabablari. Deyteromitset zamburug'larning yashash muhitlari, nojinsiy ko'payish a'zolari, nojinsiy meva tanachalari. Deyteromitsetlarning makrosiklik va mikrosiklik konidiyalashi. Deyteromitsetlarning konidiogen hujayralari: fialidalar va anneloforlar. Konidiyalar ontogenezi, ular hosil bo'lishining blastik va tallik usullari. Konidiyalar zanjirchasi hosil bo'lishining bazipetal va akropetal ketma-ketliklari. Konidiyalar konidiogen hujayradan ajralishining shizolitik va reksolitik usullari. Deyteromitsetlarning konidiyalaridan boshqa nojinsiy propagulalari. Deyteromitset zamburug'lar guruhining zamonaviy klassifikatsiyasi. Deyteromitsetlarning yashash tarzlari va muhitlari. Yirtqich deyteromitsetlar. Bo'g'imoyoqli hayvonlar bilan aloqada yashovchi deyteromitsetlarning guruhlari; nekrotrof va biotrof parazitlar, hasharotlarning endosimbiontlari. Mikangiylar. Zararli hasharotlarga qarshi biologik kurashda ishlatiladigan zamburug' turiari. Tibbiyot sohasida muhim bo'lgan deyteromitsetlar. Qishloq xo'jalik ekinlari uchun jiddiy xavf tug'diruvchi fitopatogen

deyteromitset zamburug'lar. Aeromikologiya. Nojinsiy zamburug'larning taksonomik guruhlar asosidagi namoyandalari. Arxiaskomitsetlar sinfi, Saxaromitsetales tartibi, kleystotetsiyli, peritetsiyli, apotetsiyli askomitsetlar, lokuloaskomitsetlar va boshqa askomitset zamburug'larning hamda bazidiomitsetlarning anamorfalari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)

Bulami deyteromitsetlar (Deuteromycetes) yoki takomillashmagan zamburug'lar (Fungi imperfecti) debatalishining sababi ular «takomillashgan», ya'ni jinsiy ko'payishga ega bo'lgan zamburug'larga nisbatan ikkinchi (deutero- ikkinchi) darajali, yoki «takomillashmagan» (ya'ni jinsiy bosqichiga ega bo'lmagan) ekanligiga urg'u berish uchun ulami shunday nomlar bilan atashgan. Keyinroq bu zamburug'larni alohida Deuteromycota (yoki AnamorphicFungi) nomli filumga kiritilgan, ammo, ulaming kamroq sun'iy taksonomik sistemalari foydasiga bu sistemalamingbarchasidan voz kechishgan. Hozirgi davrda AQSHning birnecha informatsion markazlarining ma'lumotlar banklari kataloglarida nojinsiy zamburug⁴ turlari, norasmiy bo'lsa ham, ulaming jinsiy jarayoni ma'lum bo'lgan «qarindoshlari» bilanbirga joylashtirilmogda. Xalqaro mikologiya institutitomonidan chop etilgan Dictionary of Fungi kitobining 8-nashrida askomitset va bazidiomitsetlaming jinsiy va nojinsiy bosqichlari oralaridagi korrelyatsiyalar ko'rsatilishi ham muhim hisoblanadi (Hawksworth et al., 1995). Undan tashqari, anamorf bosqichlar va jinsiy bosqichlar oralaridagi aloqalar intemetda elektron ma'lumotlar banklari (AnaNet)da mavjud va ulardan bu mavzuda elektron ma'lumotlami olish uchun. Mycology Home Page saytidan foydalanish mumkin. Bir qator deyteromitset turlarning (masalan, askomitset bosqichi keyinchalik topilgan Aspergillus, Penicillium, Fusarium va ko'p boshqa turkumlar turlarining) xaltachali, juda kam hollarda bazidial bosqichlari mavjudligi aniqlangan. Deyteromitsetlaming aksariyati filogenezda askomitsetlar (va faqat bir neehasi bazidiomitsetlar) bilan bog'liqligi sababli, fitopatologlar va mikologlar zamburuglaming zamonaviy sistematikalarida bu guruhni doim Askomikota filumi bilan yonma-yon joylashtirishadi. Ayrim zamburug¹ turlari jinsiy ko'payishini butunlay yo'qotganligini 1887-yilda hali Anton de Bari ta'kidlagan edi. Shu bilan birga, ko'p boshqa zamburuglaming jinsiy jarayoni tasodifiy ravishda kuzatiladi, masalan, juda ko'p fitopatogen turlarning jinsiy ko'payishi yiliga bir marta - ulaming xo'jayin o'simliklari nobud bo'lganidan keyin hosil bo'ladi. Shusababdan jinsiy jarayonga ega bo'lgan askomitset va bazidiomitset zamburuglaming ko'p turlarini odatda biztabiatda faqat nojinsiy bosqichida uchratamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSI

Deyteromitset zamburug lam ing mitseliylari, ularning jinsiy jarayoni mavjud boigan qarindoshlariniki kabi, odatda yaxshi rivojlangan, septalangan (ko'p hujayrali) va shoxlangan gifalardan iborat. Ular orasida nojinsiy kurtaklanib ko'payuvchi deyteromitset drojjalar ham mavjud. Deyteromitsetlarning vegetativ belgilari (masalan, septa porasi tuzilishi) ularning askomitset va bazidiomitset qarindoshlariniki bilan bir xil. Undan tashqari, ba'zi konidial zamburuglar apressoriylar, gaustoriylar, konidiyalar va ular bilan bogiiq tuzilmalardir. Ularning belgilari filogenetik va taksonomik ahamiyatga ega. Bu zamburuglar bilan ishlashni qulaylashtirish uchun ularning konidiyalarini guruhlarga ajratishgan. Ilk bor 1899-yilda italyan mikologi P.A. Sakkardo tuzgan konidiyalar guruhlari hozirgacha amaliyotda (faqat zamburuglar klassifikatsiyasi bilan bogiiq boimagan hollarda) qoilaniiladi. .Konidial

zamburug lam ing keyingi sistemasi va uning modifikatsiyalari, konidiya morfologiyasidan tashqari, uning rivojlanish jarayoni va konidiogen hujayra tuzilishiga asoslangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Konidial zamburugiar tabiatda juda keng tarqalgan va ular jinsiy ko'payishi ma'lum «boigan qarindoshlari bilan birga ayni muhitlami egallaydi, aksariyati yer ustida, anchasi dengiz va chuchuk suvlarda tarqalgan. Oziqlanish tipiga ko'ra deyeromitsetlarning ko'pchiligi saprotroflar yoki o'simliklaming zaif parazitlaridir. Ko'p saprotrof turlar tuproqda organik moddalar parchalanishida qatnashadi hamda ulardan ba'zilar antibiotik va boshqa metabolitlarni sintez qilib, fitopatogen mikroorganizmlarga nisbatan antogonistik xususiyat namoyon qiladi. Ba'zi turlari saprotrof oziqlanishiga qo'shimcha ravishda nematodalami ovlaydi va ular bilan ham oziqlanadi. Ayrim deyeromitsetlar lishayniklarning mikobiontlari boiib, boshqalari yopiq urugli o'simliklar bilan mikoriza hosil qiladi. Bir necha deyeromitset turlari boshqa zamburuglarda yoki lishayniklarda parazitlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Xamrayev A.Sh., Hasanov B.A., Azimov J.A., va b. Biozararlanish asoslari. Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: «Fan va texnologiya», 2013,320 bet.
2. Xamrayev A.Sh., Hasanov B.A., va b. Biozararlanish. Oliy o'quv yurtlari biologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, ToshDAU, 2009, 318 b.
3. Hasanov B.A. Qishloq xo'jalik ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, ToshDAU, 2011,208 bet.
4. Чикин Ю.А. Общая фитопатология. Часть 1. Учебное пособие. - Томск, 2001, 170 стр. (www).
5. Ячевский А.А. Основы микологии. - М.-Л., 1933, 1036 стр.
6. <http://www.ziyonet.uz>
7. <http://www.wikipedia.ru>